



THE ROLE OF THE FOOD INDUSTRY IN NAVOI REGION IN THE CONTEXT OF THE NEW UZBEKISTAN AS A RESULT OF ECONOMIC REFORMS

Shukhratjon Boymakhammadovich Kholikulov

Independent Researcher at Bukhara State University

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Navoi region, food industry, production volume, investments, export, processing industry, jobs, agricultural raw materials, entrepreneurship, modernization.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: This article analyzes the current state and development trends of the food industry in the Navoi region. Special attention is given to production volume, investments, export indicators, and job creation. The importance of deep processing of agricultural raw materials, entrepreneurial activity, and modernization of the sector is emphasized. The article also examines existing problems and possible solutions in the process of developing the region's food industry.

YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA NAVOIY VILOYATIDA O'TKAZILGAN IQTISODIY ISLOHATLAR NATIJASIDA OZIYQ-OVQAT SANOATINING O'RNI

Shuhratjon Boymaxammadovich Xolikulov

Buxoro davlat universitetining mustaqil tadqiqotchisi

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Navoiy viloyati, Oziq-ovqat sanoati, ishlab chiqarish hajmi, investitsiya, eksport, qayta ishlash sanoati, ish o'rinlari, qishloq xo'jaligi xomashyosi, tadbirkorlik, modernizatsiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Navoiy viloyatida oziq-ovqat sanoatining holati va uning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Xususan, ishlab chiqarish hajmi, investitsiyalar, eksport ko'rsatkichlari hamda ish o'rinlari yaratilishi masalalari yoritilgan. Qayta ishlash sanoati, qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash va tadbirkorlik faoliyati orqali oziq-ovqat sanoatini modernizatsiya qilish muhim vazifa sifatida ko'rsatilgan. Maqolada sohani rivojlantirishdagi muammolar va yechim yo'llari ham qayd etilgan.

РОЛЬ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА В РЕЗУЛЬТАТЕ ПРОВЕДЁННЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ

Шухратжон Боймахаммадович Холикулов

соискатель Бухарского государственного университета

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Навоийская область, пищевая промышленность, объём производства, инвестиции, экспорт, перерабатывающая промышленность, рабочие места, сельскохозяйственное сырьё, предпринимательство, модернизация.

Аннотация: В данной статье проанализировано состояние и тенденции развития пищевой промышленности Навоийской области. Особое внимание уделено объёму производства, инвестициям, экспортным показателям и созданию рабочих мест. Отмечена важность глубокой переработки сельскохозяйственного сырья, предпринимательской активности и модернизации отрасли. Также рассмотрены существующие проблемы и возможные пути их решения в процессе развития пищевой промышленности региона.

Mavzuning dolzarbligi: Yangi O'zbekiston davrida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy islohotlar har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, Navoiy viloyati o'zining sanoat salohiyati, boy tabiiy resurslari va geostrategik joylashuvi bilan respublika iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi.

So'nggi yillarda viloyatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, yangi oziq-ovqat korxonalarini tashkil etish, hamda sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonlar viloyatda oziq-ovqat sanoatining nafaqat ichki bozorni ta'minlash, balki eksport salohiyatini oshirishdagi rolini kuchaytirdi.

Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholini sog'lom ovqat bilan ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratish nuqtai nazaridan ham bu sanoat sohasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuninig metodikasi: Paxta sanoati nafaqat yengil sanoat xom ashyo bazasi, balki aholining eng ko'p iste'molida bo'lgan yog' mahsulotlariga bo'lgan talabini ham qondiruvchi soha hisoblanadi.

Mavzuninig manbaviy asosi: Navbahor tuman hokimligi joriy arxivi materiallari 2016-yil, Nurota tuman hokimligi joriy arxivi materiallari 2020-yil, Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. <https://www.navstat.uz>, Do'stlik bayrog'i viloyat gazetasi, Navoiy viloyat Qiziltepa tumanidagi "Yangi asr" sutni qayta ishlash zavodi sex boshlig'i S.Murodov bilan

qilingan suhbat (2019-yil), Navoiy viloyat Nurota tumanidagi “Nurota MILK WAY” oilaviy korxonasi rahbari N.Eshonqulova bilan qilingan suhbat (2019-yil), Xatirchi tumanidagi “Muhammad Ali quvonchi” ma’suliyati cheklangan jamiyati rahbari D.Eshnazarov bilan qilingan suhbat (2017-yil) lar asosida ushbu maqola tayyorlandi. Mavzuga manba sifatida xizmat qildi.

Asosiy qism: 2018-yil Yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Navoiy shahriga (5744,3 ming so‘m), Karmana tumaniga (3848,9 ming so‘m), Qiziltepa tumaniga (2088,9 ming so‘m), Uchquduq tumaniga (2077,2 ming so‘m), Konimex tumaniga (2042,5 ming so‘m) va Xatirchi tumaniga (1936,5 ming so‘m) to‘g‘ri keladi [1].

2019-yilda tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish hajmi 3350,2 mlrd so‘mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 104,9 foizni tashkil etdi. Iste’mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 2018 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 37,9 foizdan 39,6 foizga oshdi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining esa 62,1 foizdan 60,4 foizga pasayganligi kuzatildi [2].

2017-yilda viloyat oziq-ovqat sanoatida makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar 128,3 tonna ishlab chiqarilib, bu 2016-yil yanvar-dekabrga nisbatan 99,8 foizni, yumshoq bug‘doy va spelta uni 53,9 ming tonna ishlab chiqarilib, 104,9 foizni, birinchi navli undan tayyorlangan bug‘doy noni, og‘irligi 600 g (buxanka) 1 466,9 tonna ishlab chiqarilib, 77,5 foizni tashkil etdi[3].

2019-yil Zarafshon shahrida “Sultan Ali express tawur” MCHJ ga qarashli un va don mahsulotlarini ishlab chiqarish korxonasi qurish uchun kerakli texnologiyalar Turkiya davlatidan keltirildi. 15 nafar ishchi-xodim mehnat qilayotgan ushbu sexda kuniga o‘rtacha 60 tonna mahsulot bozorga chiqarildi. Asosiy xomashyo sifatida yurtimiz va Qozog‘iston Respublikasida yetishtirilgan bug‘doydan foydalanildi[4].

Qiziltepa tumanida “Farzod shirinliklari” MCHJ korxonasi 2018-yilda faoliyatini boshlagan bo‘lib, 40 turdan ortiq mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Bugungi kunda viloyat, balki, Samarqand, Buxoro va Qarshi shahri savdo nuqtalarida ushbu korxona mahsulotlari xaridorgir. Qishda bir kunda 1 tonnagacha, yozda 300-400 kilogramgacha mahsulot ishlab chiqariladi. 40 nafar fuqaro ish bilan ta’minlangan[5].

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarmonlarning samarali faoliyat yuritishi uchun keng imkoniyatlar yaratilishi bozorlarda mahsulotlar turlarining

ko'payishi va narx-navoning barqaror bo'lishiga xizmat qilmoqda bu esa soha egalarining yanada ishtiyoq bilan mehnat qilishini ta'minlaydi.

2017-yilda viloyat oziq-ovqat sanoatida ishlov berilgan suyuq sutdan tayyorlangan mahsulotlar 1 015,9 tonna ishlab chiqarilib, bu 2016-yil yanvar-dekabrga nisbatan 100,5 foizni, pishloqlar va tvorog 123,6 tonna ishlab chiqarilib, 98,4 foizni tashkil etdi[3].

Qiziltepa tumanining "Bo'ston" mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan yangi asr ko'p tarmoqli fermer xo'jaligida chorvachilik sohasini rivojlantirishga e'tibor berilgan. 2017-yilda 18 mlrda so'm qiymatga ega bo'lgan loyiha asosida chorvachilik firmasi bunyod etilgan. 2019-yilda korxonada 1320 bosh sigir va buzoq boqilgan bo'lib, 550 tasi Germaniyadan, qolgan qismi esa Daniya va Estoniyadan keltirilgan. Firmada bir kunda 14 ming 700 litrga yaqin sut sog'ib olinadi. Bir sigirga o'rtacha 27,02 litrdan sut to'g'ri keladi. Sog'in jarayoni Turkiya va Angliya qo'shma korxonasida ishlab chiqarilgan maxsus apparat yordamida kuniga 3 mahal amalga oshiriladi. Firmada 54 kishi ish bilan band[6].

2019-yilda xo'jalik tarkibidagi 1,5 gektar yerda sutni qayta ishlash zavodi bunyod etildi. Loyihaning umumiy qiymati 2 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Mazkur loyiha uchun, Italiya, Turkiya va Rossiya davlatlari bilan shartnomalar tuzildi. Turkiyadan zavodning ehtiyot qismlari, Xitoydan sovutish moslamalari, Rossiyadan esa laboratoriya qurilmalari keltrildi. Zavod bir kunda 40 tonna sutni qayta ishlash quvvatiga ega edi[6].

"Bu yerda pishirilgan sut, smetana, yogurt, tvorog, qaymoq, sariyog', pishloq, muzqaymoq kabi 12 turdagi mahsulotlar tayyorlanadi. Mahsulotlarni tumandagi budjet tashkilotlari, savdo rastalari, zavod va korxonalarga topshirmoqdamiz. Qadoqlash shu yerda amalga oshirilib, mahsulotlarni "Yangi asr" brendi ostida sotuvga chiqarmoqdamiz. Kelajakda sutni qayta ishlash bo'yicha eksportni amalga oshirib, dunyo bozorini egallash" – deydi, sex boshlig'i S.Murodov[7].

2019-yilda Nurota tumanida istiqomat qiluvchi Nigora Eshonqulova "Yoshlar kelajagimiz" jamg'armasi mablag'lari hisobidan 350 mln so'mlik kredit oldi va "Nurota MILK WAY" oilaviy korxonasini tashkil etdi. Ushbu oilaviy korxona bir kunda 400 litr sutni qayta ishlab, tayyor mahsulot holatiga keltiradi. Oilaviy korxonada 7 turdagi sut mahsulotlari ishlab chiqarilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va tibbiyot muassasalariga yetkazib berilmoqda[8].

"Tez orada mahsulotlarimiz turlarini ko'paytiramiz. Quruq sut va muzqaymoq tayyorlaydigan yangi texnologiyalar keltirdik. Shu mahsulotlarni ham ishlab chiqarishni boshlasak, yana 10 kishini ish bilan ta'minlaymiz" – deydi, oilaviy korxona rahbari N.Yeshonqulova[9].

2023-yil boshida Konimex tumanida sutni qayta ishlaydigan, 5 turdagi zamonaviy texnikalardan iborat “Soft Milk” MCHJ oilaviy korxonasi ish boshladi. Korxona kunlik 2 tonna sutni qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘lib, 20 turdagi sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqargan. 6 nafar yoshlar ish bilan ta‘minlangan[10]. “Sutni asosan aholidan qabul qilamiz. Uni pishirib, qayta ishlab, tayyor mahsulotni qadoqlashgacha bo‘lgan jarayonlar xodimlarimizdan alohida ma’suliyat talab qiladi. Ayniqsa, mahsulotlar sifatiga alohida e’tibor qaratmiz” – deydi, korxona rahbari Jasur To‘rayev[11]. Ushbu korxona asosan ichki bozor va hududdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun mahsulot yetkazib beradi.

Xatirchi tumanidagi “Muhammad Ali quvonchi” ma’suliyati cheklangan jamiyati 2013-yilda tashkil etilgan bo‘lib, transport vositalariga yoqilg‘i quyishga ixtisoslashtirilgan edi. Ammo yeti xazinaning biri bo‘lgan parrandachilikka qiziqish jamiyat rahbari Dilshod Eshnazarovni ushbu yo‘nalishda faoliyat yuritishga undadi. 2017-yilda jamiyat tarkibidagi 3 gektar maydonda parrandachilik korxonasini barpo qildi[12]. Loyihaning umumiy qiymati 5,5 mldr so‘mdan iborat edi. Ukrainaning “Visha” firmasidan zamonaviy texnologiyalar olib kelindi va 25 nafar ishsiz yoshlar ish bilan ta‘minlandi. Ushbu korxonada “Lohmann Brown Classic”, “LSL classic” zotli ushbu parrandalardan kuniga 50 ming dona tuxum olindi. “Sendi” zotli tovuqlar ham ko‘paytirilmoqda. Tuxum va tovuq go’shti mahsulotlari viloyatning ichki bozorlaridan tashqari Toshkent viloyatidagi Bekobod tumani va Samarqand bozorlariga yetkazib berilmoqda[13].

Navbahor tumanida yosh tadbirkor Mahmud Nurillayev ham «Yoshlar kelajagimiz» davlat dasturi bo‘yicha 2018 yil 100 million so‘m imtiyozli kredit olib, «Toshpo‘lat ota vorislari» mas’uliyati cheklangan jamiyatini tashkil etgandi. Yosh tadbirkorning asosiy faoliyati aholiga sifatli va arzon parranda go’shti mahsulotlarini yetkazib berishdan iborat. Faoliyatining ilk davrida to‘rt nafar yoshning bandligini ta‘minlagan M.Nurillayev 2019 yilda «Har bir oila tadbirkor» davlat dasturi doirasida yana 50 million so‘m imtiyozli kredit olib, qo‘shimcha oltita yangi ish o‘rni yaratdi. Bugungi kunda korxonada 10 ming bosh broyler jo‘ja parvarishlanib, MCHJ negizida 25 ming bosh parranda go’shti yetishtirishga mo‘ljallangan yangi tovuqxona va bir gektar yer maydonida zamonaviy issiqxona tashkil etish ishlari ham olib borildi. Yosh tadbirkor kelgusida nafaqat ichki, balki tashqi bozorga ham o‘z mahsulotlarini yetkazib berishni maqsad qilgan[14].

Hozirgi kunga kelib esa viloyatda aholining sifatli va arzon narxlardagi parranda go’shti va tuxumga bo‘lgan talabi to‘laligicha qondirilmoqda.

Navbahor tumanida «Azizbek Asilbek Agro invest» MCHJ tomonidan 2016-yilda quyonchilik klasteri korxonasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Yillik quvvati 60 ming bosh quyon yetishtirishni tashkil etuvchi mazkur korxonada 8 nafar kishi ish bilan ta‘minlangan. Asosan

go'sht yo'nalishidagi quyonlar 90 kun davomida parvarishlanib, o'rtacha 3-3,5 kg m tosh bosadi. Ular talabga ko'ra shifoxonalar, ta'lim muassasalari hamda aholiga yetkazib beriladi. Bu kabi loyihalar, avvalo, xalq farovonligini ta'minlash, aholi bandligini ta'minlashga qaratilganligi bilan yanada ahamiyatlidir[15].

Nurota tumanida 2020 yil 1 oktabr holatiga 40 ming bosh qoramol, shundan 22,7 ming bosh sigir, 479,2 ming bosh qo'y va echkilar, 1,6 ming bosh yilqi, 162,1 ming bosh parranda parvarishlanib kelinmoqda[16].

2022-yilda Nurota tumanida tashkil etilgan «SABRINA BOG'LARI 2022» mas'uliyati cheklangan jamiyati yangi, sovitilgan va muzlatilgan go'sht ishlab chiqarish bilan shug'ullangan.

2019-yilda Navoiy shahrida «SOLAR GOLD CONCENTRATE» mas'uliyati cheklangan jamiyati, 2020-yilda Nurota tumanida «NURATA KARAKUL WOOL EXPORT» xususiy korxonasi, 2021-yilda Navoiy shahrida «NAVOIY UNIVERSAL GROUP 999» mas'uliyati cheklangan jamiyati, Qiziltepa tumanida «SHOX-2022» mas'uliyati cheklangan jamiyati, 2022-yilda Uchquduq tumanida «NURBARAKA UCHQUDUQ-777» mas'uliyati cheklangan jamiyati, Zarafshon shahrida «YERKIN 2022 XK» xususiy korxonasi, 2023-yilda Xatirchi tumanida «UMAROV BAXTIYOR 1987» xususiy korxonasi va «9 DRAGONOV» mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil etilib, bu korxona va tashkilotlar qushxonalarda mol so'yish, go'shtga ishlov berish yoki qadoqlash bilan shug'ullanib, viloyatda oziq-ovqatni qayta ishlashda muhim o'rin tutgan.

2021-yilda Karmana tumanida «MARXABO YUSUFOVNA» oilaviy korxonasi, 2022-yilda Uchquduq tumanida «UCHQUDUQ SHERZOD CHAROS IFTIXORI « mas'uliyati cheklangan jamiyati, 2023-yilda G'ozg'on shahrida «OTASHBEK MEAT HOUSE» xususiy korxonalari tashkil etilib, bu korxona va tashkilotlar go'shtni qayta ishlash bo'yicha faoliyat olib bordilar.

2019-yilda Navoiy shahrida «DOMASHNYAYA KULINARIYA» oilaviy korxonasi, 2020-yilda Nurota tumanida «ALIJON ZARIFJON SADRIDDIN HAMKORLAR» mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil etilib, bu korxona va tashkilotlar tuzlangan, quritilgan yoki dudlangan go'sht, parranda go'shti va ozuqaviy submahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullandilar.

Prezidentimizning 2018 yil 6 noyabrdagi PQ-4005-son "Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi va 2020 yil 29 avgustdagi PQ-4816-son "Baliqchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorlari baliq mahsulotini sanoat usulida yetishtirish, qayta ishlashda tarmoq korxonalari uchun keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Unga ko'ra, baliq mahsuloti

yetishtirish bilan shug'ullanuvchi qishloq xo'jaligi korxonalariga suv iste'moli uchun to'lanadigan soliq turlarida imtiyozlar berildi.

2020-yilda Respublikamizda birinchi marta "XACCP-ISO 22000" sertifikatini olishga muvaffaq bo'lgan Qiziltepa tumanidagi "Golden Bio Fish" korxonasi Turkiyaga 1 mln dollar va Vengriyaga 1 mln yevro miqdoridagi muzlatilgan baliq hamda file mahsulotlari eksportini amalga oshirdi [17].

2019-yilda Qiziltepa tumanida «AQUA FUTURA» Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi qo'shma korxona, Nurota tumanida «QIZILCHA CHORVALARI» oilaviy korxonasi, 2021-yilda Xatirchi tumanida «OQ DARYO KONTOR 125» oilaviy korxonasi, 2022-yilda Zarafshon shahrida «ZARAFSHON-FISH PRODUCTS» mas'uliyati cheklangan jamiyati, Qiziltepa tumanida «YANGI TOSHRABOT SERVIS» mas'uliyati cheklangan jamiyati, Xatirchi tumanida «YECO FISH 9999» mas'uliyati cheklangan jamiyati, Navoiy shahrida «NUROBOD FAST GOLD FISH» mas'uliyati cheklangan jamiyati, 2023-yilda Qiziltepa tumanida «ARABON OLTIN BALIQ 777» oilaviy korxonasi, Karmana tumanida «OZODBEK ORZUSI-5555» oilaviy korxonasi, Xatirchi tumanida «XOJIAKBAR XOMIDOV BALIQLARI» xususiy korxonasi va «YELEGANT GOLDFISH 777» mas'uliyati cheklangan jamiyati tashkil etilib, bu korxona va tashkilotlar baliq, qisqichbaqasimonlar va mollyuskalarni qayta ishlash va konservalash bilan shug'ullanib, viloyat oziq-ovqat sanoatida muhim o'rin egallab keldi.

Oziq-ovqat sanoatimizda yana bir yirik sohalardan biri meva-sabzavotchilik sohasidir. 2016-yilda Navbahor tumani "Kelachi" mahallasida Xitoy davlari bilan hamkorlikda "BAY TEA GROUP" MCHJ korxonasi tashkil etilgan edi. Ushbu korxona tomonidan xitoy choyi plantatsiyalarini mahalliy iqlimga moslashtirish orqali tayyor mahsulot yetishtirish yo'lga qo'yildi. 2020-2021 yillarda qiymati 40 mln dollarga teng xorijiy investitsiya kiritildi [18].

2018-yil avgust oyida qo'shma korxona sifatida shakllantirilgan "Paradise Garden" MCHJ Koreya Respublikasining "MS Holdings" korxonasi bilan hamkorlikda navbahor tumani "Qorajon" mahallasida qiymati 1 mln AQSH dollariniga teng bo'lgan vino zavodiga asos solgan. Qo'shimcha ishlab chiqarish obyekti va binolarini qurish uchun 2019-yilda Italiyaning "DELLA TOFFALA SPA" korxonasidan 448 ming yevroga baholangan texnologiyalar sotib olindi. Shuningdek, Koreya Respublikasidan qiymati 447 ming AQSH dollariga teng bo'lgan texnologik uskunalar sotib olindi. Korxona bir yilda 2,93 mln dollarga teng 800 tonna mahsulot tayyorladi. Eksportga yo'naltirish qiymati birinchi bosqichda 400 ming dollarni tashkil etdi [18]. Bu yerda soatiga 1 tonna mevani, 0,8 tonna uzumni qayta ishlab, sharbat ko'rinishida tayyor mahsulot sifatida qadoqlab chiqarish imkoniyati yaratildi. 2021 yilda mazkur loyiha to'liq ishga tushirilib, 15 ta doimiy hamda 50 ta mavsumiy ish o'rinlari yaratildi.

«Navbahor agro-industrial complex» ishlab chiqarish korxonasi hamda «Navbahor garden fruits» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ham uzum yetishtirish borasida «Qush Qochdi» mahallasida jadal ishlar olib borilmoqda. Mazkur subyekt jami 300 gektar yer maydonda tomchilab sug'orish orqali uzum ko'chatlarini parvarishlamoqda.

2019-yil aprel oyida xitoylik tadbirkor Liu Sijun tomonidan Navbahor tumanida «DANJIAN» MCHJ xorijiy korxonasiga asos solindi va uning ustav fondi 400 mln so'mni tashkil etdi. Ushbu korxona faoliyati davomida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va xorijga eksport qilish bilan shug'ullandi. Mart oyida Turkiya davlati bilan hamkorlikda «ASIA SERA GARDENS» MCHJ qo'shma korxonasi tashkil etildi [18].

2019-yilda Karmana tumanida «MEVA SABZAVOT-NAVOIY» mas'uliyati cheklangan jamiyati, 2020-yilda Zarafshon shahrida «NUROTA CHUYA CITY ZARAF» xususiy korxonasi tashkil etilgan bo'lib, ushbu korxona va tashkilotlar meva va sabzavot sharbatlarini ishlab chiqarish sohasida viloyat oziq-ovqat sanoatida muhim ahamiyatga egadir.

2019-yilda Navoiy shahrida «UNIVERSALAGRO» mas'uliyati cheklangan jamiyati xorijiy korxonasi, Zarafshon shahrida «ZARAFSHON TA'MINOT-2019» mas'uliyati cheklangan jamiyati, 2020-yilda Zarafshon shahrida «ABDUL HAKIM EXPORT IMPORT» xususiy korxonasi, 2021-yilda Navoiy shahrida «YUKSAK G'URUR» xususiy korxonasi va «NICE NEW NAZAR» oilaviy korxonasi, 2022 yilda Navbahor tumanida «NAVKAR BRENDI SSSSS» oilaviy korxonasi, 2023 yilda Karmana tumanida «NAVOI NUTS» mas'uliyati cheklangan jamiyati, Xatirchi tumanida «AMIRAN 777-2001» mas'uliyati cheklangan jamiyati mevalar va sabzavotlarni qayta ishlash va konservalashning boshqa turlari bo'yicha viloyat oziq-ovqat sanoatida muhim o'rin tutgan.

Viloyatda ishlab chiqarish sanoatining tarkibida ichimliklar ishlab chiqarish 2016-yilda 1,5 foizni, 2017-yilda 1,5 foizni, 2018-yilda 0,9 foizni, 2019-yilda 0,5 foizni, 2020-yilda 0,02 foizni, 2021-yilda 0,02 foizni, 2022-yilda 0,02 foizni, 2023-yilda 0,02 foizni tashkil etdi [19].

2022-yilda Navoiy viloyatida sanoati tarkibida ichimliklar ishlab chiqarishda tumanlarning ulushi quyidagicha bo'ldi: Navoiy shahri 0,05 foiz, Zarafshon shahri 0,2 foiz, G'ozg'on shahri 0,1 foiz, Karmana tumani 0,01 foiz, Konimex tumani 1,4 foiz, Qiziltepa tumani 0,1 foiz, Navbahor tumani 0,6 foiz, Nurota tumani 0,2 foiz, Tomdi tumani 0,2 foiz, Uchquduq tumani 0,1 foiz, Xatirchi tumani 0,4 foiz bo'ldi [19].

Odatda uzum, qovun, tarvuz, qovoq va anorning urug'i tashlab yuboriladi. Xorijda bu urug'lar qayta ishlanib, tansiq mahsulotlar tayyorlanadi. Xususan, bir kilogramm tarvuz urug'i yog'i jahon bozorida 28 dollar, anor urug'iniki esa 350 dollar turadi. Yurtimizda ham ularni

qayta ishlash yo'liga qo'yilsa, yiliga 250 million dollarlik eksportbop mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi[20].

Bizga ma'lumki, 2019 yilda boshlangan koronavirus pandemiyasi ko'plab sohalar kabi oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini ham murakkab vaziyatga solib qo'ydi. Chunki mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar, xususan, oziq-ovqat yetkazib berishning global zanjirida uzilishlar ro'y berdi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, har kuni sayyoramizning 840 milliondan ortiq aholisi to'yib ovqatlanmayapti. Oqibatda 160 milliondan ortiq bolada bo'y o'sishi, jismoniy va intellektual rivojlanish bilan bog'liq kamchiliklar kuzatilmoqda. So'nggi vaqtlarda yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini va eksport salohiyatini oshirishga bo'lgan yondoshuv tubdan o'zgardi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari hamda iste'mol tovarlarini uzluksiz yetkazib berish, ichki bozorda narx-navolar sun'iy ko'tarilishining oldini olish yuzasidan aniq chora-tadbirlar belgilandi.

Ma'lum bo'lishicha, oxirgi vaqtlarda go'sht, tuxum, o'simlik yog'i va shakar mahsulotlarining narxi keskin oshdi. Dunyo bozorida o'simlik yog'i 15 foiz, O'zbekistonda esa 26 foizga ortdi. Shakar narxi 5 foiz kamayishiga qaramay, mamlakatda 23 foizga qimmatlashgan[21].

Oziq-ovqat mahsulotlarining yuqori narxlari kambag'allar soni oshishi xavfi bilan birga jiddiy ijtimoiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Avvallari sanoat zonalarini tashkil etilsa-da, ularni rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmagan. So'nggi yillarda sanoat zonalarini tashkil etishda ularning barcha turini ko'paytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Bugun mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini faoliyati samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda davlatimiz rahbarining 2018 yil 21 dekabrda "Yerkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5600-son farmoni[22] muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Viloyat oziq-ovqat sanoatida 2016-2023 yillarda jiddiy o'sish kuzatildi. Navoiy viloyati oziq-ovqat sanoatida yillik ishlab chiqarish hajmi 2016-yilda 1 005,1 mlrd. so'm, 2017-yilda 1 049,6 mlrd. so'm, 2018-yilda 1 070,1 mlrd. so'm, 2019-yilda 1 397,7 mlrd. so'm, 2020-yilda 1 716,2 mlrd. so'm, 2021-yilda 1 855,3 mlrd. so'm, 2022-yilda 1 940,4 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilgan[19].

Viloyatda ishlab chiqarish sanoatining tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2016-yilda 12,2 foizni, 2017-yilda 10,3 foizni, 2018-yilda 5,0 foizni, 2019-yilda 3,3 foizni, 2020-yilda 3,1 foizni, 2021-yilda 3,1 foizni, 2022-yilda 2,8 foizni, 2023-yilda 3,0 foizni tashkil etdi[19].

2022-yilda Navoiy viloyatida sanoati tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda tumanlarning ulushi quyidagicha bo'ldi: Navoiy shahri 0,9 foiz, Zarafshon shahri 30,5 foiz, G'ozg'on shahri 14,0 foiz, Karmana tumani 6,0 foiz, Konimex tumani 21,7 foiz, Qiziltepa tumani 24,2 foiz, Navbahor tumani 19,9 foiz, Nurota tumani 35,7 foiz, Tomdi tumani 37,3 foiz, Uchquduq tumani 15,6 foiz, Xatirchi tumani 44,3 foiz bo'ldi[19].

2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 2 455,5 mlrd. so'mga to'g'ri keldi. Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib, 23,6 % ni, Navoiy shahriga 22,8 % va Qiziltepa tumaniga 19,7 % ekanligi kuzatildi[19].

2023-yil avgust holatiga ko'ra, Navoiy viloyatida 875 ta oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxona va tashkilotlar mavjud edi. Shundan, 15 tasi qushxonalarda mol so'yish, go'shtga ishlov berish yoki qadoqlash, 1 tasi yangi, sovutilgan va muzlatilgan go'sht ishlab chiqarish, 4 tasi go'shtni qayta ishlash bo'yicha boshqa faoliyat, 13 tasi uy parrandalari go'shtini qayta ishlash, 2 tasi tuzlangan, quritilgan yoki dudlangan go'sht, parranda go'shti va ozuqaviy submahsulotlar ishlab chiqarish, 1 tasi kolbasa mahsulotlari ishlab chiqarish, 3 tasi boshqa toifalarga kiritilmagan go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish, 12 tasi baliq, qisqichbaqasimonlar va mollyuskalarni qayta ishlash va konservalash, 3 tasi meva va sabzavot sharbatlarini ishlab chiqarish, 10 tasi mevalar va sabzavotlarni qayta ishlash va konservalashning boshqa turlari, 15 tasi o'simlik va hayvonlar yog'lari va moylarini ishlab chiqarish, 2 tasi margarin va ovqatga ishlatiladigan aralash yog'lar ishlab chiqarish, 36 tasi sutni qayta ishlash va pishloq ishlab chiqarish, 13 tasi muzqaymoq ishlab chiqarish, 45 tasi tegirmon-yorma sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish, 1 tasi kraxmal va kraxmalli mahsulotlar ishlab chiqarish, 522 tasi non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish, 19 tasi suxarik va pechenyye, xamirdan tayyorlangan uzoq saqlanadigan qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish, 16 tasi makaron mahsulotlari va shunga o'xshash unli mahsulotlar ishlab chiqarish, 10 tasi kakao, shokolad va sershaklar qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish, 3 tasi choy va qahva ishlab chiqarish, 16 tasi ziravor va dorivorlar ishlab chiqarish, 6 tasi tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, 20 tasi boshqa toifalarga kiritilmagan oziq-ovqat

mahsulotlari ishlab chiqarish, 4 tasi fermalarda boqiladigan hayvonlar uchun tayyor ozuqa ishlab chiqarish, 7 tasi uy hayvonlari uchun tayyor ozuqa ishlab chiqarish, 1 tasi spirtli ichimliklarni distillash, tozalash va aralashtirish, 2 tasi uzumdan vino ishlab chiqarish, 1 tasi boshqa distillanmagan fermentlangan (bijg'itilgan) ichimliklar ishlab chiqarish, 1 tasi pivo ishlab chiqarish, 70 tasi spirtsiz ichimliklar ishlab chiqarish, butilkada mineral suvlar va boshqa suvlar ishlab chiqarish bilan shug'ullangan[19].

Xulosa qilib aytish mumkinki, oziq-ovqat ta'minotining ustuvor jihatlaridan biri oziq-ovqat ta'minotining asosiy mohiyatini aholini talab darajasida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va sog'lom turmush darajasini yaxshilash deb hisoblasak, ikkinchi tomondan esa mamlakatning importga qaram bo'lishining oldini olish, aholini o'zida yetishtirilgan mahsulot bilan ta'minlash va mahsulot yetishtiruvchilar manfaatini qo'llab quvvatlashdir. Respublikamizda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishning barqarorligi hisobiga aholining asosiy iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji deyarli to'liq mahalliy ishlab chiqaruvchilar hisobidan qondirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. 2018-yil. <https://www.navstat.uz>
2. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. 2019-yil. <https://www.navstat.uz>
3. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. 2017-yil. <https://www.navstat.uz>
4. Do'stlik bayrog'i. 2019-yil 27-avgust. № 68.
5. Do'stlik bayrog'i. 2023-yil 13-iyul. № 28.
6. Do'stlik bayrog'i. 2019-yil 6-avgust. № 62.
7. Navoiy viloyat Qiziltepa tumanidagi "Yangi asr" sutni qayta ishlash zavodi sex boshlig'i S.Murodov bilan qilingan suhbatdan. 2019-yil.
8. Do'stlik bayrog'i. 2019-yil 2-avgust. № 61.
9. Navoiy viloyat Nurota tumanidagi "Nurota MILK WAY" oilaviy korxonasi rahbari N.Eshonqulova bilan qilingan suhbatdan. 2019-yil.
10. Do'stlik bayrog'i. 2023-yil 8-iyun. № 23.
11. Navoiy viloyat Konimex tumanidagi "Soft Milk" MChJ oilaviy korxonasi rahbari J.To'rayev bilan qilingan suhbatdan. 2023-yil.
12. Xatirchi tumanidagi "Muhammad Ali quvonchi" ma'suliyati cheklangan jamiyati rahbari D.Eshnazarov bilan qilingan suhbatdan. 2017-yil.
13. Do'stlik bayrog'i. 2019-yil 30-iyul. № 60.
14. Navbahor tumanidagi "Toshpo'lat ota vorislari" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari M.Nurillayev bilan qilingan suhbatdan. 2019-yil.
15. Navbahor tuman hokimligi joriy arxivi materiallari. 2016-yil. 5-varaq.

16. Nurota tuman hokimligi joriy arxivi materiallari. 2020-yil. 9-varaq.
17. Do'stlik bayrog'i. 2020-yil 6-mart. № 12.
18. Do'stlik bayrog'i. 2019-yil 9-avgust. № 63.
19. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari. <https://www.navstat.uz>
20. <https://kun.uz/76529195>
21. Yangi O'zbekiston, 2020 yil 23 oktabr. 203 – son.
22. <https://lex.uz/docs/4117767>